

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## VILOYATIMIZDAGI AYRIM KAMYOB TURLARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Xalmuratov M.A<sup>1</sup>., Baratov J. <sup>2</sup>, Xudoyberdiyeva X<sup>3</sup>

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada viloyatimiz hududida tarqalgan, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan ayrim kamyob tular haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek bu turlarning dorivorlik xususiyatlari keng yoritilgan hamda bu turlarni himoya qilish zarurati ta'kidlangan.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена информация о некоторых редких видах, распространенных на территории нашей области, включенных в "Красную книгу" Республики Узбекистан. Также были широко освещены лечебные свойства этих видов и подчеркнута необходимость их защиты.

**ANNOTATION.** This article contains information about some of the rare tulas that are distributed in the territory of our region, included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan. Also the medicinal properties of but ur learning are widely covered and the need to protect these species is highlighted.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiy, "Qizil Kitobi", Zo'rcha, Po'fanak turkumi, Binafsha gulli arg'uvon, Burchoqsimon kalispepla, Qorapoya moyqorag'on, Qoraqat, Mayda gulli oksitropis, Marmarak, Buxoro tangao'ti, Yirik piyoz, bakteritsid.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, "Красная книга", жимолость, род пузырчатка, Багрянник Гриффита, калиспепла угловатая, Майкараган сетчатый, ежевика, окситропис мелкоцветковый, Салвия, Копеечник бухарский, большой лук, бактерицид.

**Keywords:** Central Asia, "Red Book", honeysuckle, genus pemphigus, Griffith's crimson, kalispepla angular, netted Maikaragan, blackberry, oxytropismelkotsvetkovy, Salvia, Kopechnik Bukhara, big onion, bactericide.

O'zbekiston o'simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Cho'l va dashtlar, tog'lar va adirlar, pasttekisliklar va daryo daltalari yon ma-yon joylashib ajoyib manzara hosil qiladi. Bu aql bovar qilmaydigan bo'lib tuyulishi mumkin, ammo aslida Markaziy Osiyoning qo'shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning tog'laridagi maydon birligiga nisbati bo'yicha o'simliklar soni bir necha baravar ko'p.

So'ngi ma'lumotlarga qaraganda mamlakatimizning o'simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o'simliklarni birlashtiradi. Bu o'simliklar orasida dorivor o'simliklarning ham ulushi kam emas. Ular ekologik toza bo'lib oziq-ovqat, aromatic va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham xomashyo sifatida ishlatiladi.

Surxondaryo viloyati hududida 1500 dan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, undan 127 turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgandir. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgan o'simliklarning 40% vohamiz kengliklarida tarqalgan.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Mana shunday noyob va kamyob hamda muhim dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan ayrim o'simliklar hamda ularning dorivorlik hususiyatlari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

**Zo'rchatarkibidakeng** ta'sir doirali fiziologik faol birikmalar bo'lib, ular inson organizmiga antioksidantlik, anabolik, gipoglikemik, gemoreologik ta'sir etish bilan birgalikda yaralarning tezroq bitishida, miokardit, ateroskleroz, rakka qarshi, suyak sinishi va gepatitni davolashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Po'fanak turkumi** vakillarining moyi me'da va ichak yaralarini davolash xususiyatiga ega bo'lib, teri kasalliklari, qirqilgan yaralarni bitishini tezlashtirish uchun ishlatilishi yaxshi natija beradi.

**Binafsha gulli arg'uvon** moyi ateroskleroz kasalligining oldini olish va davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari, qon tarkibidagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va organizmdagi lipoidlarning almashinish jarayonini yaxshilaydi.

Tibbiyotda **Burchoqsimon kalispeplao** o'simligining yer ustki qismi preparatlari qon tomirlaringspazmasi natijasida kelib chiqqan bosh og'rig'i, pnevmoniya, revmatizm, bolalarda tirishish bilan o'tadigan kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Bulardan tashqari, qo'tir va boshqa teri kasalliklarini davolashda ham qo'llaniladi.

**Qorapoya moyqorag'ono** o'simligining dorivor preparatlari ichak atoniyasi, kolit, arterioskleroz, gipertoniya kasalligining sklerotik formasini va avitaminoz kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Bu preparatlarining kasalligida burun shilliq qavatlariga surtiladi va ginekologiyada trixomonada kolpitini davolashda ham qo'llaniladi.

**Qoraqatning** bargi, mevasi va preparatlari singa hamda boshqa gipo va avitaminoz kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Mevasi xalq meditsinasida terlatuvchi va siydik haydovchi, ich ketishiga qarshi, bargi esa bod kasalligida hamda terlatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. **Mayda gulli oksitropiso** o'simlikning preparati siydik haydovchi vositasi sifatida buyrak (buyrak tosh kasalligi) hamda xolesistit va yurak glikozidlari bilan birgalikda yurak kon tomiri sistemasining kasalliklarida ishlatiladi. Dorivor **Marmarak** bargining preparatlari burishtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yuqori nafas yo'llari yallig'langanda yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi dori sifatida, og'iz (stomatit va gingivit) va tomoqni chayqash uchun ishlatiladi. **Buxoro tangao'tio** o'simlikning dorivor preparatlari nerv sistemasi ishining funksional buzilishida, miya va organizmning jismoniy charchashida hamda boshqa og'ir kasalliklarda organizm tonusini ko'taruvchi dori sifatida ishlatiladi.

**Yirik piyozo** o'simligining dorivor preparatlari ichak atoniyasi, kolit, arterioskleroz, gipertoniya kasalligining sklerotik formasini va avitaminoz kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Bu preparatlar rinit kasalligida burun shilliq qavatlariga surtiladi va ginekologiyada trixomonada kolpitini davolashda ham qo'llaniladi.

## **“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Piyoz o‘simligining preparatlari bakteritsid xossasiga ega. Maydalangan piyozboshidan qiyinlik bilan bitadigan va yiringli yaralarni davolashda ham foydalaniladi. Xalq tabobatida piyoz siydik haydovchi va singa kasalligini davolovchi dori sifatida ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof muhitni, hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e‘tibor berildi va qator qonunlar va farmonlar qabul qilindi. Bu qaror va qonunlarni bajaruvchilari esa insonlardir. Demak viloyatimizdagi shunday qimmatbaho o‘simliklar olami vakillarini himoya qilish barchamizning asosiy vazifamizdir. Shundagina biz o‘zimiz va kelajak avlodlar oldidagi burchimizni bajargan bo‘lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI**

1. Жумаев К. Ж. Дикорастущие эфирно-масличные растения Сурхон-Шерабадской долины. Автореф. канд. дисс. –Т., 1974, 18 с.
2. Жумаев Х. Ж. Ўзбекистоннинг жанубида ўсувчи мармарак ва тоғрайхон ўсимликларининг онтогенези, антропоэкологияси ва улардан унумли фойдаланиш йўллари. Автореф. канд. дисс. –Т., 1990, 18 с.
3. Ибрагимов А. Ж. Сурхон давлат қўриқхонасининг флораси. Автореф. канд. дисс. Т., 2010, 20 б.
4. Определитель растений Средней Азии. Т. 1-Х. Ташкент: Фан. 1968-1993.
5. Холмуратов М. А.,  
Қодирова Д. Н. Сурхондарё вилоятининг Ўзбекистон Республикаси  
“Қизил китоби”га киритилган камёб ваноёб ўсимликлари  
“Сурхоннашр” 2017. 125б.
6. Ўзбекистон Республикаси “Қизил китоби”. Тошкент, 2009. “СНinorENK”